

O'RTA OSIYO HUDUDIDA YASHOVCHI XALQLARNING ETNIK
JIHATDAN SHAKLLANISH JARAYONI

*Buxoro davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi
Jumakulov Najmiddin Ibroimovich
Buxoro davlat universiteti magistranti
Ibroimov Ruslan Najmiddin o'g'li*

Annotatsiya: O'rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixini o'rganish tarix fanining murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu hozirgi kunning muhim muammolaridan biri hamdir. O'rta Osiyo xalqlarining mustaqilligi va xalq sifatida etnomadaniy jihatdan tiklanishi sharoitida ularning milliy o'zligini anglashini kuchaytirish uchun teran tarixiy bilim va tarixiy jarayonning etnik rang-barangligida xalqlarning o'z munosib o'rnini aniq-ravshan idrok etishi katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Etnos, irq, millat, elat, turklar, yurt, etnogenez, etnomadaniyat, Turon, xalq, etnik tarkib.

Markaziy Osiyo mintaqasida yashayotgan etnoslarning o'zaro do'stlik rishlalarining azaliyligi va har qanday xalqning tarixi hamda madaniyati qo'shni qardosh xalq tarixi hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq ekanligini aniq dalillar asosida yoritib berish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Markaziy Osiyo yoki O'rta Osiyo¹ - Osiyo materigining ichki qismidagi tabiiy hudud bo'lib, maydoni 6 mln. km²dan iborat. Shim, va g'arbiy chekkasi Mongoliya va XXR bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi davlat chegarasigacha bo'lib, sharqiy qismi Katta Shinjon, janubiy tomoni esa Tibet hududidagi Sangpo (Brahmaputra) va Hind daryolarining yuqori qismi bilan o'ralgan. Markaziy Osiyo dengiz sathidan ancha baland joylashgan.

Relief kenglik bo'ylab cho'zilgan tog' tizmalari (Mongoliya Oltoyi, Xangay, Xentey, Tyan-shan, Nanshan, Kunlun) va keng hamda ancha chuqur botiqlar (Jungoriya va G'arbiy Mongoliyadagi Katta Ko'llar soyliqi, Tarim hamda Saydam)dan iborat. Ayrim joylarida mutlaq balandlik dengiz sathidan past (mass., Turfon botig'i - 154 m). Qum va shag'alli baland tekisliklar, kichik tog' ko'p. Iqlimi hamma yerda keskin kontinental, cho'l iqlimi; yog'in kam, yiliga o'rtacha 100-200 mm, markaziy qismlarida 10-30 mm, chekkalarida 300-400 mm, jan.sharqida, Tibet tog'larining chetlarida 1000 mm va undan ham ko'proq.

Qishda antitsiklon ta'sirida qattiq sovuq bo'ladi, yanvaning o'rtacha temperaturasi - 10°, - 25°, eng past temperatura - 50°, - 52°. Tangritog\ Nanshan va Qoraqurum

¹ Markaziy Osiyo aksar hollarda siyosiy, O'rta Osiyo esa geografik tushunchalarni anglatadi.

tog'larida muzliklar mavjud. Selenga, Irtish, Xuanxe, Yanszi, Brahmaputra, Hind, Mekong, Tarim, Xaydikgol, Kobdo, Tes, Manas, Urungu va Edzin-gol daryolari tog'lardan boshlanadi. Chuchuk suvli eng katta Xubsugul oqar ko'lining maydoni 2620 km², eng chuqur joyi - .238 m. Markaziy Osiyoning kattagina qismini Gobi, Taklamakon, Alashan va boshqa cho'llar egallagan. Cho'l va chala cho'Har baland tog'largacha ko'tarilib boradi. Balandlik mintaqalari asosan, Tangritog'ning sharqiy qismi, sharqiy Tangritog'ning shimoliy yon bag'irlari va Mongoliya Oltoyining janubiy-g'arbiy yon bag'irlarida uchraydi. Xangay va Xentey tog'lari hamda Tibet tog'ligining janubiy-sharqiy qismida anchagina o'rmonlar mavjud.

Markaziy Osiyo deganda, Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin mustaqillikka erishgan beshta Respublika: Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston nazarda tutiladi.

Sovet davrida ushbu hududga "O'rta Osiyo va Qozog'iston" atamasi (O'rta Osiyo va Qozog'iston iqtisodiy regionini) qo'llanilgan. Lekin, 1991-yilda mustaqillikka erishilgandan keyin ham ushbu davlatlar, ham xorijiy mamlakatlarda "Markaziy Osiyo" atamasi qo'llanila boshlandi. 1992-yil yanvarda beshta davlat rahbarlari rasmiy uchrashuvida "Markaziy Osiyo" atamasini qabul qilindi. Hozirda ushbu atama dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilindi, natijada aksariyat xalqaro tashkilot va ilmiy tadqiqot institutlarida Markaziy Osiyo bo'limlari ochildi.

Lekin, geografik nuqtai nazardan yondashilsa, Markaziy Osiyoga Afg'oniston, Mo'g'uliston va Xitoyning Shinjon-Uyg'ur avtonom viloyatlari ham kiradi. Bundan tashqari, "Greater Central Asia" yoki "Kengroq Markaziy Osiyo" atamasi mavjud. Ba'zi siyosatchi va tadqiqotchilar ushbu hududga yuqorida zikr etilgan davlatlardan tashqari Eron, Ozarbayjon, Turkiya va hatto Hindistonning ayrim qismlarini ham qo'shadilar.

Tarixiy-etnologik tadqiqotlar ayrim etnos, elat, shu jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining insoniyat tarixida tutgan o'mi va mavqeyini aniqlashga yordam beradi. Tarixiy taqdiri bir, xo'jalikmadaniy jihatdan umumiy, maishiy turmush tarzi va ijtimoiy taraqqiyoti o'zaro yaqin mazkur mintaqa xalqlari etnografiyasi ko'p jihatdan o'zgaruvchan xarakterga ega. Tarixiy-etnologik va etnik tuzilishi qanchalik barqaror bo'lmasin, Markaziy Osiyo etnoslari zamonlar osha doimo rivojlanib, o'zgarib turgan.

Xususan, Markaziy Osiyo xalqlari uzoq va murakkab mashaqqatli tarixiy jarayonning mahsuli bo'libgina qolmay, ma'naviy madaniyat va umumpsixologik xususiyatlari bilan ham nihoyatda jipslashib ketgan. Ushbu xalqlaning xususiyatlarini aniqlash uchun dastlab etnik tarixning ayrim sahifalarini varaqlash zarur.

Miloddan avvalgi VI asrda ushbu hududlarda Eron podsholigi, IV asrda esa Iskandar Zulqamayn boshliq yunon-makedon podsholigi hukm surgan. Keyinchalik mazkur hududlar Xorazm va Qang' davlatlari, so'ngra Kushon podsholigi (II asr oxiri - III asr boshlari), Eftaliylar davlati (V-VI asrlar), Turk xoqonligi (VI-VII asrlar), Arab


xalifaligi (VIII asr) tarkibida bo‘lgan.

X-XI asrlarda qadimgi Markaziy Osiyo (Movarounnahr)da Somoniylar (819-1005), Saljuqiylar (XI asr), G‘aznaviylar (X-XII asrlar) davlatlari vujudga kelgan. Birmuncha vaqt ushbu hududlar Qoraxoniylar (X asr) hukmronligiga ham o‘tgan.

XII asr oxiri - XIII asr boshlaridan boshlab Xorazm podsholigi (995-1200) qo‘l ostida bo‘lgan. XIII asr ikkinchi o‘n yilligi oxiridan mazkur hududlarni mo‘g‘ul istilochilari bosib olgan edi. XIV asr 70- yillarida Amir Temur davlati qaror topadi. XV asr oxiri – XVI asr boshlaridan ushbu yerlar Shayboniylar, so‘ngra Ashtarxoniylar davlatlariga qaram bo‘lgan.

Natijada, XVIII asr o‘rtalarida uchta davlat: Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari tashkil topadi. XIX asr ikkinchi yarmida esa Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylandi. Tez orada Qo‘qon xonligi tugatilib, o‘lka Rossiyaning xomashyo bazasiga aylantirildi. Xullas, Markaziy Osiyo yerlari qariyb 26 asr mobaynida o‘zga davlatlar qaramog‘i va zulmi ostida bo‘lgan. Yozma manbalarga ko‘ra, XVI asr oxiri - XVII asr boshlaridan to 1924-yilgacha ushbu hududlar “Turkiston” deb atalgan.

Ushbu mintaqa hududi turli davrlarda “Turon”, “Turkiston”, “Movapoy-nahr”, “O‘rta Osiyo” va nihoyat “Markaziy Osiyo” nomlari bilan atalib kelinmoqda. Tabiiyki, mazkur mintaqalar hududiy jihatdan biroz farq qilgan. Shu boisdan, Turonzamin hududi o‘tmishda qanday nomlanganligi va uning tarixi barchani qiziqtiradi, albatta².



Yunon bosqinchilari (mil.avv. IV asr) Markaziy Osiyoni Ahamoniylar imperiyasining bir qismi sifatida “Transoksiana” yoki “Transoksoniya” deb ataganlar.

² Doniyorov A., Bo‘riyev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. – Toshkent: “NIF MSH”, 2020. – B. 29.

Qadimgi xitoyliklar (mil. avv. II-I asrlar) mintaqani Xi-yu, ya'ni "G'arbiy o'lka" deb ataganlar va Sharqiy Turkistonning davomi deb bilganlar.

Mazkur atama bilan birga uning "Turkiy yurt"? "Turk eli", "Turk budun" va "Turkiston" atamalari yozma bitiklarda uchraydi hamda barcha turkiy xalqlaning dunyoviy va ijtimoiy etnik birligini ifodalovchi asosiy tushuncha hamda nom sifatida qo'llanilgan.

Ta'kidlash joizki turk atamasining ilk marotaba tilga olinishi 542 yilga to'g'ri keladi. Turli manbalarda turklar "turk el", "turk", "turkash", "tukdus", "tu-kyu", "tuk-yut" kabi nomlar bilan tilga olinadi. **Kuchli, baquvvat, botir** kabi ma'nolarni anglatuvchi "turk" atamasi dastavval etnik xususiyatga ega bo'lmay ijtimoiy ma'noga ega bo'lgan. Turklarning kelib chiqishi xususida ko'plab afsonalar mavjuddir. Ayrim afsonalarda turklarning kelib chiqishi Nuh paygambarga borib taqalsa, ayrimlarida ular o'n yashar bola va ona bo'ridan tarqalganligi ta'kidlanadi. Yana boshqa bir afsonaga ko'ra, turk qabilasining ajdodlari Oltoyning shimoliy yon bag'irlarida joylashgan So viloyatidan kelib chiqqan bo'lib, bu yerdagi qabila boshlig'i Abanbu ularning ilk yo'l boshchisi bo'lgan.

Turon – tarixiy geografik atamasi ilk bor qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy, muarrixlar at-Tabariy va al-Istaxriylaning asarlari, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida "Eron" bilan "Turon" nomlari keltirilgan. Ma'lumki, Eron va Turon hududlari chegarasi Amudaryo orqali belgilangan.

Dastlab, "Avesto"da qayd etilgan "tur" etnonimi keyinchalik Markaziy Osiyo dasht va tog' hududlarida yashovchi chorvador aholi bilan bog'liq edi. Olimlarning fikriga ko'ra, "turk" atamasi sakmassagetlarning dastlabki nomi bo'Mishi ham mumkin. Sakmassagetlar va ularga yaqin qarindosh qabilalar mil av . VI-IV asrlarda Oltoy va Janubiy Sibir dashtlarigacha tarqalgan. Bu haqida arxeologik ma'lumotlar ham dalolat beradi, shuningdek, ShinjonUyg'ur o'lkasida saklar yozuvlarining tarqalishi ham ushbu fikmi tasdiqlaydi. Ko'rinib turibdiki, Turon faqat Markaziy Osiyo hududining qadimgi nomi degan xulosa munozarali hisoblanadi. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, Turon - bu turklar, turkiy qabilalarning yurti, degan ma'noni anglatib, keyinchalik "Turkiston" atamasiga aylangan.

Akademik A.Muhammadjonovning fikricha, "Turon" atamasi sug'dcha "yer", "tuproq", "dala" va "dasht" kabi ma'nolarni bildiradi. Shunga ko'ra, "Turon" toponimi pasttekislik, dala va dashtliklar, ya'ni keng yaylov degan ma'noni anglatadi. "Turon" va "turonliklar yurti" iboralarini keng hududlar bilan bog'lash mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, tarixiy-geografik jihatdan Turon hududlari Tinch okeanidan o'rta yer dengizidagi EgeyAdriatikagacha, Shimoliy Muz okeanidan Tibet va Himolay tog'larigacha, shimoliy Hindistondan Onado'ligacha, ya'ni hozirgi Turkiyagacha bo'lgan hududlarda yashovchi turkiy xalqlar vatanini anglatadi.

Turonning markaziy qismi geografik jihatdan "Turon" pasttekisligi deb ataladi va

asosan, Markaziy Osiyoning shimoliy-gʻarbiy hamda Qozogʻistonning janubiy-gʻarbiy qismlarini oʻz ichiga olib, uning chegaralari Kaspiy dengizi, shimolda Ural togʻi, sharqda Tangritog etaklari, janubda esa Pomir va Kopetdog* togʻlarigacha borib taqaladi. Turonda qadimdan XX asr boshlarigacha Alp Er Toʻnga, Afrosiyob va Kushon shohlari, sharqiy va gʻarbiy Turk xoqonliklari, Attila, Parfiya, Qoraxoniylar, Gʻaznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Chingizxon, Chigʻatoy, Temuriylar, Usmoniylar, Edil boʻyi, Sibir xonlari, Shayboniylar, Ashtarxoniylar hamda Buxoro amirligi, Xiva va Qoʻqon xonliklari mavjud boʻlgan.

Xullas, “Turon” atamasi turkiylar degan maʼnoni anglatganligi uchun oʻz chegarasida barcha xalqlarni qamrab olgan umumiy bir nom hisoblanadi. “Turk” soʻzini barcha shoʻbalarini oʻz ichiga oladigan ulugʻ Turkiston deyishga toʻliq asoslar mavjud. Tarixchi Sh. Kamoliddinning fikricha, Markaziy Osiyo mintaqasining eng qadimgi nomi “Turon” boʻlib, ushbu atamaning keyingi asrlardagi davomchisi va ekvivalenti “Turkiston” hisoblanadi.

“Turkiston” atamasi milodiy 445-yildan boshlab turli manbalarda tilga olinadi. Mazkur atama ilk marta 639-yilda Turfonda tuzilgan sugʻd hujjatlarida Markaziy Osiyo mintaqasining nomi sifatida ishlatilgan. “Turkiston” atamasi “Markaziy Osiyo” va “Movarounnahr” toponimlaridan farqli ravishda nafaqat geografik, shu bilan birga etnologik tushunchani anglatib, siyosiy-huquqiy ahamiyatga ham ega boʻlgan. Arablar istilosidan soʻng ham “Turkiston” toponimi oʻzining siyosiy-huquqiy maʼnosini yoʻqotmagan. Uning sarhadlari uzoq shimol va sharqda Arab xalifaligi, Qarluq hamda Uygʻur xoqonliklari bilan chegaradosh boʻlgan hududlargacha yoyilgan. Aynan ushbu davlatlar “Turkiston” nomi bilan IX-XIII asrlardagi arab muarrix va geograflarining asarlarida qayd etilgan³.

Qoraxoniylar davlati barpo etilishi bilan “Turkiston” toponimining ahamiyati oʻzining sobiq hududlari chegarasida deyarli tiklangach, “Movarounnahr” atamasi esa Turkiston, yaʼni Qoraxoniylar davlatining bir qismi sifatida qarala boshlangan.

Muarrix va geograf Mahmud ibn Valining (XVII asr) “Bahr ul-asror” (“Sirlar dengizi”) asarida yozilishicha, “Turkiston keng va koʻngiili yurtdir. Bu yurt uzunligi Sayhun daryosining qirgʻogʻidan Qoramurin daryosining qirgʻogʻigacha boʻlib, bu yemi Moʻgʻuliston nomi bilan atashgan”. Muallif Turkistonning yana bir nomi bu - “Turon va uning aholisi turklar” deb koʻrsatgan.

“Turkiston” atamasi ham turkiy xalqlar yashaydigan oʻlka, joy va yurt turkiy bitiklardagi “Turk Budun” mazmunini ifodalaydi.

Sovet davri qomuslarida taʼkidlanganidek, Turkiston keng maʼnoda - turkiy xalqlar yashovchi hudud nomi hisoblangan. Tor maʼnoda Turkiston 1867—1917-yillardagi Turkiston generalgubematorligi (1886-yildan Turkiston oʻlkasi) tushunilgan. Shuningdek, Rossiya imperiyasining vassallari Xiva va Buxoro xonliklari hududining

³ Малявкин А.Г. Уйгурское государства в IX-XIII вв.. – Новосибирск: Наука, 1983. – С. 56.

tarixiy-geografik nomidir.

Rossiya bosib olgan g'arbiy Turkiston hududida 1867-yilda Turkiston generalgubematorligi tuzildi, 1886-yildan rasman Turkiston o'lkasi deb atalgan. Oktyabr to'ntarishidan so'ng g'arbiy Turkiston hududida Turkiston ASSR tuzilgan. Turkistonda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi, ya'ni uning 3 ta Respublika va 2 ta avtonom viloyatga bo'linishi tufayli Sovetlar davlatida Turkiston nomi ishlatilmaydigan bo'ldi. Chunki, Sovet hukumati mustaqil Turkistonni tiklash g'oyasidan nihoyatda qo'rqar edi.

Yuqorida ta'kidlaganidek, 1924-1925-yillarda Turkistonda milliy-hududiy chegaralanishi o'tkazilib, "Turkiston" atamasi sun'iy ravishda muomaladan chiqarildi va uning o'rniga rasman "O'zbo'stong" geografik atamasi joriy qilindi.

O'zbekiston o'z strategik o'rnini, iqtisodiy va madaniy salohiyati jihatidan Turkistonning vorisi hisoblanadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ushbu atama tarixiy, siyosiy va madaniy-etnik jihatidan qaytadan muomalaga kiritildi hamda keng ko'lmda qo'llanilmoqda.

"Movarounnahr" atamasi Markaziy Osiyoning markaziy va janubiy viloyatlariga nisbatan ham ishlatilgan. Ushbu geografik atama arabcha "daryo orti", "daryoning narigi tomoni", ya'ni Amudaryo ortida va uning o'ng qirg'og'idagi hudud degan ma'noni anglatishi keng tarqalgan edi. Uning xuddi shu ma'noni anglatadigan fors tilidagi "Vorarud" va "Vora Jayhun" shakllari mavjud, ulaning barchasi avval (XI asr) Xuroson viloyatining davomi sifatida, IX asr boshlaridan e'tiboran esa Turkiston, ya'ni Qoraxoniylar va undan keyingi turkiy davlatlar tarkibidagi ma'muriy birlik sifatida tushunilgan.

"Movarounnahr" atamasi ilk bor hadislarda tilga olingan. Aftidan, ushbu atama arablar o'rtasida islomgacha bo'lgan davrlarda ham ma'lum bo'lib, u vaqtda (VI asr) shimoli-sharqda Jayhun, ya'ni Amudaryoning orqasida joylashgan Turk xoqonligiga qarashli hududlarni anglatgan.

Arab tilida "daryoning narigi betidagi yerlar", degan ma'noni anglatadigan "Movarounnahr" atamasi qadimgi yunonlarning "Transaksiana" atamasining deyarli solzma-so'z tarjimasini hisoblanadi.

Arablar o'zlarining Sharqqa qilgan ilk yurishlari davomida (VII asr ikkinchi yarmi – VIII asr boshlari) ushbu o'lkaga haqida ikki xil tushuncha va ma'lumotga ega bo'lgan edi. "Ma-duna-m-n-nahr", ya'ni "Movarounnahr", ya'ni "daryoning pastki tomoni" va "Ma-varo-an-nahr", ya'ni "Movarounnahr" daryoning narigi tomoni ma'nolarini anglatgan. Mazkur atama VII asrning 70-yillaridan, ya'ni Arab xalifaligi noiblari Marv shahriga kelib, Turkistonga vaqti-vaqti bilan o'ziga olish uchun Poykent, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlariga qilgan yurishlari davridan boshlab qo'llanilgan.

705-715-yillarda ushbu atama yanada keng iste'molga kirgan. Arablar ta'sirida

“Movarounnahr” atamasi o‘rta asrlardan boshlab Xo‘jand, Samarqand va Buxoro shaharlari hamda uning atroflari, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalami o‘z ichiga olgan. Mazkur atama Sirdaryo va Amudaryo oralig‘idagi keng hududni anglatgan ilmiy, tarixiy va geografik asarlardan Yevropa tillariga ana shu yuqorida chegaralangan hududni anglatuvchi atama sifatida o‘tgan va qo‘llanilgan.

“O‘rta Osiyo” atamasini dastlab XIX asrda taniqli nemis geograf olimi A. Fon Gumbold “Mittel Azia” shaklida Osiyo qit‘asining ichki qismlarini belgilash uchun qo‘llagan edi. U Osiyo uchun 0 ‘rta paralleldan shimol va janubda 5 kenglikdagi hududni “0 ‘rta Osiyo” deb ataydi. Olim mintaqaning g‘arbiy qismini Kaspiy dengizi bilan chegaralagani holda sharqiy qismining chegaralarini aniq ko‘rsatmaydi.

Mashhur nemis geografi Ferdinand fon Rixtgofen o‘zining “Хитой” asarida ushbu hududga nisbatan yangi va birmuncha aniqroq ta‘rifni taklif etgan edi. Uning fikricha, janubda Tibetdan shimolda Oltoygacha, g‘arbda Pomirdan sharqda Xingongacha bo‘lgan hududlar - Markaziy Osiyodir. Olim Orol - Kaspiy pasttekisligini oraliq chiziqqa mansub, deb qayd etgan edi.

Markaziy Osiyo - Yevrosiyo materigining o‘rta qismi, g‘arbda Kaspiy dengizi qirg‘oqlari, sharqda Xitoy, shimolda G‘arbiy Sibir tekisligi, janubda Nishopur, Safedko‘h va Hindikush tog‘Mariga cho‘zilgan yirik tabiiy-geografik o‘lkadir.


Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishda lingvistik tasniflash muhim ahamiyatga ega. Mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning tillari rang-barang bo‘lib, tarixan qadimiy va zamonaviy ko‘rinishga ega.

Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishda lingvistik tasniflash muhim ahamiyatga ega. Mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning tillari rang-barang bo‘lib, tarixan qadimiy va zamonaviy ko‘rinishga ega.

Turkiy tillar. Mintaqa aholisining ko‘pchiligi Oltoy oilasining turkiy tillar guruhiga kiradigan til va shevalarda so‘zlashadi. Ushbu guruhga o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, uyg‘ur va tatar tillari kiradi. Turkiy tilda so‘zlashadigan kishilar butun mintaqa aholisining taxminan 60 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Umuman olganda, turkiy tillarda so‘zlashuvchilarning umumiy soni 130 million nafardan ortiq aholini tashkil etadi.

Ayrim lingvistlar turkiy tillarni mo‘g‘ul hamda tungus-manjur tillari bilan birga qo‘shib, oltoy tillari oilasiga birlashtiradi. Jumladan, ye. D. Polivanov va G. Y. Ramstedt kabi tilshunoslarning fikricha, ushbu tillar oilasi koreys va yapon tillarini qo‘shish hisobiga kengayishi mumkin. Oltoy nazariyasiga ko‘ra, turkiy tilning tarixi oltoy tillari bir til bo‘lib tashkil topgan qadimdan, ya‘ni oltoy davridan boshlanadi. Oltoy bobo tili (asos til) dastlab ikkiga- tungus-manjur va turk-mo‘g‘ul tillariga, so‘ngra turk-mo‘g‘ul tili ham ikkiga - turk va mo‘g‘ul tillariga ajralgan. Lekin, turkiy tilning oltoy tillariga genetik aloqadorligi haqidagi masalaga hamon taxmin darajasida

qaralmoqda⁴.



XI-XII asrlardan eski turkiy tildan ajrala boshlagan eski o'zbek tili o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida murakkab etnogenetik va etnolingvistik jarayonlarni bosib o'tdi. Ana shu etnogenetik va siyosiy-tarixiy jarayonlar o'zbek tili tarixida ma'lum darajada iz qoldirdi.

Tarixan turli ilmiy manbalarda eski o'zbek tili "turkiy", "turkcha", "chig'atoy tili", "chig'atoy turkiysi", singari nomlar bilan atalib kelgan. Xususan, mashhur sayyoh X. Vamberi ("Chig'atoy tili darsligi", 1867) va uning izidan bir qator g'arb olimlari XIII-XIX asrlar oralig'idagi eski o'zbek tilini noto'g'ri ravishda "chig'atoy tili" deb nomlagan edi. Vaholanki, mo'g'ullar istilosi davrida hozirgi kunda o'zbeklar nomi bilan yuritiluvchi xalqning madaniyati, tili va adabiyotiga mo'g'ullarning biron-bir sezilarli ta'siri bo'lgan emas, boshqacha ifodalaganda, eski o'zbek tilining Chig'atoy va mo'g'ullarga hech qanday aloqasi yo'q, aksincha, mo'g'ullar Movarounnahrda yashovchi etnosning yuksak madaniyatidan bahramand bo'lgan. Buning ustiga, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk shoir va mutafakkirlar o'zlari ijod qilgan tilni "turkiy", "turkcha" deb atab, uni boshqa turkiy tillardan alohida ajratib ko'rsatadilar.

Markaziy Osiyo tarixi va etnografiyasini moddiy hamda yozma manbalar asosida o'rganish salmoqli natijalarni qo'lga kiritishga asos bo'lmoqda. Markaziy Osiyodagi Delgor-Murgena bo'yidan topilgan ierogliflar, Buyuk Xitoy devori va Turkiy-run yozuvlari bizga mazkur hududni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Uzoq o'tmishda, 3-4 ming yillar muqaddam Markaziy Osiyoning saxovatli tuprog'idan g'arbdan sharqqa tomon qadimiy hind-yevropa tiliarida so'zlashadigan turli qabilalar Oltoy va Mo'g'uliston tomon ko'chib o'tgan. Mil. av. I ning yillikning oxiridan boshlab sharqdan g'arbgacha tomon katta ko'chish jarayoni ro'y beradi. Dastlab turkiy tilda gaplashadigan qadimiy xunn qabilalari milodning I ning yilligi

⁴ Doniyorov A., Bo'riyev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. – Toshkent: "NIF MSH", 2020. – B. 37.

o'rtalarigacha ushbu hududga ko'chib o'tgan va etnik jihatdan sezilarli iz qoldirgan. Turkiy elatning bir necha asr davom etgan ko'chish jarayoniida ayrim mo'g'ul qabilalarining migratsiyasi. ham sodir. bo'lgan. O'sha davrda g'oyat, kayi va boyandar kabi mo'g'ul qabilalarining mavjud bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotlar diqqatga sazovordir.

Uzoq vaqt mobaynida Markaziy Osiyoga ko'chib kelgan elatlar o'lkamiz zaminida o'ziga xos moddiy madaniyat yodgorliklarini qoldirgan. Mazkur hududda I ning yillikning o'rtalarida ketma-ket ko'chib kela boshlagan xunn, xion, oq xunn, abdal, bajanak va boshqa turkiy qabilalari mahalliy xalqlar orasida turkiy aholi nufuzi hamda mavqeyini mustahkamlaydi. Ammo, aborigen (tub aholi)lar orasida ham apasiak va augasiylar deb nom olgan qadimiy turk elati ham mavjud bo'lgan; Mazkur qabila elat rus solnomalarida ko'p tilga olingan pecheng (bajanak)lar degan fikr ham yo'q emas. Ayrim tadqiqotchilaning taxminicha, asugasiylami keyinchalik "o'g'uz" nomi bilan mashhur turk elati desa bo'ladi.

Turkiy xalqlaning tarix sahnasiga kelishi mil. avv. I ming yilligida Janubiy Sibir va quyi Volga hududlarida bir qancha turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalar va xoqonliklarning shakllanishi sodir bo'ldi. Bular: birinchi turk imperiyalari - Sharqiy turk va G'arbiy turk xoqonliklari, Uyg'ur hamda Turkiy xoqonlik, Xazar, Bulg'or, Qarluq, Qoraxon, Qalmoq, Orol atrofidagi o'g'uzlarning Qipchoq va Xorazm davlatlari hisoblanadi.

Turkiy qabilalarning o'zagi Markaziy Osiyo xunnlari orasida (III asr - V asr o'rtalari) shakllangan. Mazkur qabilalar ona bo'ri Ashinaning afsonaviy o'g'lini o'zining ajdodi deb biladi. V asr o'rtalarida turklar Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan Juan-Juan xoqonligiga tobe bo'lgan va Oltoy da yashagan. Bu yerda ular konlami o'zlashtirib, temir eritishni shunday ko'lamda tashkil etganki, hatto Juan-Juanga o'lponni temir bilan to'lagan. Turklarning g'ayratli yetakchilari Asanshod, Tur va Bumin konchi, temir quyuvchi hamda temirchilar imkoniyatlaridan iloji boricha yaxshiroq foydalanib, otliq askarlariga sovut kiydirgan va yuz yildan ko'proq muddat mobaynida Oltoydagi barcha qabilalami o'zlariga bo'ysundirgan. Bumin 546-yilda oltoyliliklar bilan birga Jung'oriyada yashab turgan ko'p sonli tegret xalqini ham o'z qaramog'iga oladi. Shu davrdan boshlab, turklar o'lpon to'lovchidan Markaziy Osiyoda Juan-Juanlarning raqibiga aylangan.

Arab tarixchisi at-Tabariy VII-VIII asrlarda Balx, Tohariston, Badxiz, Ko'xiston, Seraxs, Chog'aniyon, Buxoro, Choch va Farg'ona aholisining asosini turkiy qavmlar tashkil etadi, deb qayd qilgan edi. Muallifning yozishicha, ushbu qavmlar orasida qarluqlarning o'mi katta bo'lgan. Yozma manbalarga ko'ra, Somoniylar bilan Qarluqlar davlati o'rtasida ma'lum chegara belgilansa-da, ammo hozirgi zamon tasavvuridagi aniq chegara bo'lmagan. Turkiy urug'lar Movarounnahrga Sirdaryoning shimoliy hududlaridan erkin ko'chib yurgan. Ma'sudiyning fikricha, qarluqlar X asrda

butun Farg'ona, Shosh va ulaning atroflarida yashagan⁵.

Turkiy urug'laning Movarounnahrda tinch va osoyishta kirib kelishi arablargacha ham, ulaning hukmronligi davrida ham, hatto Somoniylarning turkiy urug'Mami kirib kelishiga qarshi chegara hududlarida mudofaa devorlarini barpo etishlariga qaramay, uzluksiz davom etar edi. Buning oqibatida ularning o'troq hayotga ko'chishi va tub yerli aholining turklashuvi tezlashdi, Movarounnahning turkiy qavm va urug'lar keng tarqalgan hududlarida mazkur qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi va etnosiyosiy jihatdan birlashishi ta'minlandi⁶.

Xuddi shunday tarixiy sharoit o'rta Osiyo turkiy qavmlari hayotida IX asrga kelganda o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Ayni vaqtda turk etnik qatlami orasida feodallashish jarayonlari ham jadal kechmoqda edi. Mazkur jarayon oliy hokimiyatdan mustaqil siyosat yuritish uchun intilayotgan yuqori tabaqa vakillarining o'zaro uzluksiz urushlari va talonchilik yurishlari bilan birga sodir bo'lmoqda edi. Chorvador mintaqalarda beboshliklarga barham berish uchun kuchli davlat hokimiyati kerak edi. Ana shunday kuchli davlat hokimiyati ma'lum bir yetakchi urug' asosida tarkib topadi.

Shubhasiz, etnoslarning o'zaro yaqinlashish jarayonlarida ma'lum bir etnik guruh yetakchi rol o'ynaydi. Boshqa etnik guruhlar ana shu yetakchi guruh (urug') atrofida jipslashib, u bilan til va etnomadaniy, hududiy hamda iqtisodiy-xo'jalik jihatdan yaqinlashib boradi. Etnogenetik jarayon nihoyasiga yetganda, aniq bir hududda joylashgan etnik birliklar ma'lum rivojlanish pog'onalaridan o'tib, birlarlari bilan qorishib, bir tilda yoki bir-birlariga yaqin lahjalarda so'zlashuvchi va qarashlari ko'p jihatdan umumiy bo'lgan siyosiy uyushma tashkil topadi. IX asrda turk dunyosidagi ana shunday siyosiy uyushma Qarluq ittifoqi edi. Ushbu turkiy urug'laning Qarluq ittifoqi hududiy doirasida, taniqli tilshunos N.A. Baskakov ta'biri bilan ifodalaganda, aynan qarluq shevasi asosida shakllandi.

Qoraxoniylar davlatining ta'sir doirasi Yettisuvdan to qadimgi Farg'onaning sharqiy hududlari va Sirdaryoning o'rta havzalarigacha cho'zilgan edi. Elshunos K. Shoniyozov to'g'ri ta'kidlaganidek, IX-X asrlarda siyosiy hokimiyat Movarounnahrda somoniylar qo'lida bo'lsa-da, uning shimoliy, shimoliy-sharqiy va shimoliy-g'arbiy viloyatlari Qarluq-Qoraxoniylar davlati doirasida o'zbek elati shakllangan edi. Aynan ushbu yirik turkiy etnomadaniy hududiy yaxlitlik o'zbek xalqi etnogenezi tarixida muhim fundamental asos sifatida xarakterlanadi⁷.

IX-X asrlarda elat bo'lib shakllangan o'zbek ajdodlarining umumiy nomi (etnonimi) bo'lmasa ham, ularda o'zligini anglash hissiyoti kuchli edi. O'zbek elati qo'shni urug'lar bilan yaqin tilda (turli lahjalarda) so'zlashgan bo'lishlariga

⁵ Абулфазл Муҳаммад ибн Хусайн Байҳақий. Тарихи Масъудий. Ўзбекистон тарихи (V-XI асрлар), (Ўзбекистон тарихи ва манбалари). Масъул муҳаррирлар: А.Ахмедов, О.Бўриев. III жилд. – Тошкент: “O'zbekiston”, 2023. – Б. 420-427.

⁶ Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Шарк, 1999. – Б. 34.

⁷ Doniyorov A., Bo'riyev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. – Toshkent: “NIF MSH”, 2020. – B. 40.

qaramasdan, o'zlarini ba'zi xususiyatlari bilan (madaniyati, til lahajasi, urf-odatlar, diniy e'tiqodlari va boshqalar) ulardan farq qilgan. Boshqacha qilib aytganda, "ular (masalan, uyg'iirlar va qirg'izlar) va "bizlar ("qarluqlar" va "xoqoni iklar)" degan iboralar bilan bir xalqni ikkinchi xalqdan (ayrim xususiyatlarini hisobga olib) ajratish hissiyoti pay do bo'lgan.

Etnik nom va o'zligini anglashdan tashqari ma'lum bir xalqning etnik birlik (elat) bo'lib yetish darajasini belgilovchi yana bir qancha boshqa ko'rsatkichlar (iqtisodiy, madaniy, siyosiy, til, hudud birligi va boshqalar) ham mavjud. Qarluqlar davri (IX-X)da ular hukmronlik qilgan katta hududda bir qancha o'troq, yarim o'troq va yarim ko'chmanchi etnik guruhlar yashar edi.

Bu etnoslar ustida yozma manbalar hamda dala tadqiqotlari orqali tadqiqot olib borilishi nafaqat turg'un aholi moddiy va ma'naviy madaniyati balki, kirib kelgan xalqlarning xo'jalik yuritish shakli, oilaviy munosabatlari, moddiy madaniyati, e'tiqodiy qarashlari, mahalliy aholi bilan munosabatning turli ko'rinishlari (savdo-sotiq, madaniy)ni yorituvchi ishlarni yaratilishiga olib keldi⁸.

Xullas, hozirgi O'zbekiston va uning tevarak-atrofidagi hududlarda uzoq vaqt davom etgan etnogenetik jarayonlar natijasida, ya'ni so'g'diy, xorazmiylar, bohtariylar va saklarning shu zaminda bronza davridan boshlab, ular bilan yonma-yon yashab kelayotgan turkiyzabon urug' hamda qavmlari bilan aralashuvi natijasida o'zbek xalqi XI-XII asrlarda uzil-kesil shakllandi. Mazkur etnogenetik jarayonlar o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyati hamda hozirgi kundagi antropologiyasida ham o'z aksini topgan.

O'zbek xalqi shakllanish jarayoni kelib chiqishiga ko'ra, qarluq, qipchoq va o'g'uz komponentli turkiy etnik hamda etnografik guruhlarining faol assimilyatsiyasi va konsolidatsiyasi natijasidir. Kelib chiqishi turkiy bo'lgan turkmanlar, ozarbayjonlar va anatoliya turklarning etnogenezida o'g'uz etnik komponenti, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz hamda boshqirdaning shakllanishida esa qipchoq komponenti, uyg'urlarning shakllanish tarixida esa qarluq komponentni ta'siri yaqqol seziladi.

O'zbek xalqining shakllanishida esa yuqorida ko'rsatilgan barcha uch etnolingvistik komponentlarning ta'sirini ko'rish mumkin. Mazkur holat esa o'zbek xalqining etnik jihatdan ko'p komponentlilik etnik, lingvistik, antropologik, madaniy jihatdan xilma-xil va rang-barang bo'lishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, o'zbek xalqi madaniyatining boy va serqirra ekanligi, o'troq shahar madaniyatiga dasht chorvador madaniyati elementlarning qorishib ketganligi mana shu assimilyatsiya jarayonlarining natijasi ekanligidan dalolat beradi.

⁸ Маматалиев А.Р. Фарғона водийси этнографиясининг ўрганилиши (Мустақиллик йиллари ижтимоий-гуманитар журналлардаги мақолалар асосида) / Ўз МУ хабарлари. №4/1, 2011. - 154 бет.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. – Тошкент: “Шарқ машъали”, 1993. – Б. 76.
2. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А. Расулов таржимаси, Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. Изоҳлар муаллифи Д.Юсупова. – Тошкент: “Фан”, 1966.
3. Бартольд В.В. История Туркестана. 9 т. Т. II. Ч. I. – М., 1963. – С. 13.
4. Буниёдов З. Ануштагин – Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). А.Аҳмад ва М. Маҳмуд таржимаси. – Тошкент: “Шарқ”, 1998. – Б. 127.
5. Дониёров А. Х. Марказий Осиё халқлари этнологияси, этногенези ва этник тарихи фанидан таълим технологияси. — Тошкент: YANGI NASHR, 2010 . - 144 бет.
6. Doniyorov A., Bo‘riyev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. – Toshkent: “NIF MSH”, 2020. – B. 29.
7. Дониёров А.Х. Марказий Осиё халқлари этнологияси, этногенези ва этник тарихи. Дарслик. — Тошкент: ТДШИ, 2009. – Б. 29.
8. Джикиев А. Очерки прохождения туркменского народа в эпоху средневековья. Ашхабад, 1991, - С. 298-299.
9. Маматалиев А.Р. Фарғона водийси этнографиясининг ўрганилиши (Мустақиллик йиллари ижтимоий-гуманитар журналлардаги мақолалар асосида) / Ўз МУ хабарлари. №4/1, 2011. - 154 бет.
10. Машарипова Г. Абу Райҳон Беруний асарларида этнографияга оид масалалар / “Tamaddun nuri”. 12-son, 2018 у. – В. 24-27.
11. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий университети, 2012. – Б. 160.
12. Ўзбекистон тарихи (Бухоро тарихи), (Ўзбекистон тарихи ва манбалари). Муаллифлар: Ҳалим Тўраев, Бешир Мирзақулов. X жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2023. – Б. 118.